

**KIMYO DARSLARIDA ZAMONAVIY TALIM VOSITALARIDAN  
FOYDALANISHNING AHAMIYATI****Nurullayeva Mohigul O'razimbat qizi***Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumani 27-sonli maktab  
kimyo fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada kimyo darslarida ta'lim vositalaridan foydalanishning ahamiyati haqida bo'lib, bunda kimyo darslarda o'quv texnik vositalardan foydalanish ayni paytda darslarni samarali, faol tarzda tashkil etishda, o'quvchining diqqat e'tiborini jalb etish kabi kutilgan natijalarni berayotganligi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *kimyo, metod, interfaol, xodisa, texnik vosita, texnologiya, idrok.*

Kimyo fani har kungi yashash tarzimizdagi ko'plab asosiy jihatlar kelajakda bizga yashirin ammo yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan va ko'plab xayolga kelmagan xulosalarni yuzaga chiqishi bilan ham muhimdir. Kimyo fani imkoniyatlarimizni aql -idrokimizni anglashda va tushunib yetishimizga yordam beradi. Bu olamda yashash qanday bilimlar asosida rivojlanadi, kundalik hayotning ko'plab muammolarida bizning shaxsiy faoliyatimizda qanday qarorlar qabul qilinadi. Masalan: taom qachon o'zgaradi, qachonki uni pishirganimizda, qaysi tozalovchi vositani qaysi maqsadda tozalash uchun tanlaymiz, qanday materiallardan ishlab chiqarilgan va ularni xususiyatlari turlicha, biz ularni qanday qilib ishlata olamiz, tibbiyot vazifasida, vitaminlar va dori-darmonlar yoki potentsional tushunganimizda zamonaviy kimyo fanini texnologik ishlab chiqarish bilan aloqadorligini tushunib yetamiz. O'quv dasturi kimyo fani o'qitishda oddiydan murakkabga tomon tuzilgan bo'lib, dastavval modda, moddalarning xossalari, kimyoviy til, eng muhim kimyoviy tushunchalar va qonunlar, nazariyalar, kimyoviy ishlab chiqarish texnologiyasi, kimyo sanoati erishgan yutuqlar, tabiat va jamiyatda kimyoviy ishlab chiqarishning o'rni, ta'siri haqidagi bilimlarni berish va amaliy malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilgan. O'quv dasturda o'quvchilar bilan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlariga, har bir mavzuga tegishli savol va topshiriqlarni yechishga katta ahamiyat beriladi, tegishli bo'limlar tugatilgandan so'ng olingan nazariy bilimlar masalalar yechish yoki test sinovlarini bajarish orqali mustahkamlab boriladi.

Nazariy darslarda ta'lim beruvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan misoli uchun darsliklar va tarqatma materiallardan va texnik vositalardan foydalanadilar. Amaliy mashg'ulotlarda ular ko'proq tasvirli va real vositalardan, ya'ni eskiz, asbob uskunalardan foydalanadilar. Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audiovizual vositalar jarayonlar va vazifalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi. Yordamchi vositalar buning aksi o'laroq tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ular doska, flipchart, pinbord doskasi, kodoskop, videoproektor kabilardir. Ish sohasiga tegishli real narsalar, ya'ni maxsulotlar, asboblardan va boshqalar dars paytida didaktik funktsiyaga ega bo'lsa, o'quv vositasi sifatida qo'llanishi mumkin. Ta'lim vositalaridan foydalanishda

ularni muayyan maqsad, mo'ljallangan guruh, mahsus soha va metodlarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari ta'lim beruvchi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim.

Kimyo fani bo'yicha ximiyaviy hodisalarni tajriba qilib ko'rsatish alohida tayyorgarlikni talab qiladi. Dars jarayonida amaliy ko'rgazmali materiallaridan foydalanish keng qo'llaniladi. Undan umumiy foydalanish uchun quyidagi qoidaga rioya qilmoq zarur: o'quvchilarga dars oldidan namoyish jarayonidan ko'zlangan maqsad qisqacha tushuntiriladi; ko'rgazmali materiallar o'qituvchi bayonining ma'lum paytida ko'rsatiladi yoki tarqatiladi; namoyish jarayonini o'qitishi tomonidan izohlab beriladi. Bunda ayniqsa, tajribaning muvaffiqiyatli chiqishini ta'minlash muhimdir. Amaliy mashg'ulot va laboratoriya ishlarini o'tkazishda turli xil kimyoviy idishlar, kimyoviy moddalar mavjudligi va o'qituvchining ulardan oqilona foydalana olishi zaruriy shartlardandir. Har bir darsda, ayniqsa, amaliy mashg'ulotlar vaqtida o'qituvchi o'quvchini zamonaviy fan-texnika yangiliklari bilan tanishtirib, imkon qadar ularga ana shu yangiliklar bilan bog'liq tajribalarni ko'rsatib borishi zarur. O'quvchi kimyo fanidan dasturda berilgan bilimlar hajmini to'liq egallab, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni mustaqil o'tkazish malakalarini egallashlari kerak.

Vizuallashtirish usul bo'lgani kabi ko'rsatmali tasavvur vositasi ham hisoblanadi. Ko'rsatmali tasavvurning boshqa imkoniyatlari: model taqdimi, biror jarayon namoyishi, predmetlar bilan xarakatli munosabatlar (eksperimentlar). Qadimgi mahalda aytilgandek: "100 marta eshitgandan, bir marta ko'rgan yaxshi". Bugungi kungacha ham bu holat hech o'zgargani yo'q. Ko'rsatmalilik, tushunarlilik va misol-namunalardan foydalanish kabi didaktik tamoyillar bunga javob beradi, chunki bu usullarning mohiyati shuki, o'qituvchi bilimlarni o'quvchilarga ko'rgazmali va imkon qadar real xayotiga bog'langan tarzda berishi lozim. O'quv va didaktik materiallarni ishlatishda albatta ularning mavjudligi katta rol o'ynaydi. O'quv amaliyotning tashkil etish yo'llarini to'g'ri tanlash va qo'llash o'quvchilar tomonidan materiallarni yaxshi o'zlashtirishga asos bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Raxmatullaev N.G., Omonov X.T., Mirkomilov SH.M. Kimyo o'qitish metodikasi. Toshkent. "O'qituvchi" 2008
2. M.Nishonov, SH.Mamajonov, V.Xo'jaev "Kimyo o'qitish metodikasi" Toshkent O'qituvchi 2002
3. Umumiy maktablarida kimyo fanidan laboratoriya ishlarini o'tkazish buyicha uslubiy qo'llanma. XTV, RTM, Toshkent, 2005.